

## SHAVKAT RAHMON IJODIDA METAFORA VA O'XSHATISHLAR

Baxranova Muhayyo Raxmat qizi

O'zMU jurnalistika fakulteti Lingvistika(o'zbek tili)

yo'nalishi I-kurs magistranti.

T.Yandasheva Ilmiy rahbar: PhD.

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Shavkat Rahmon ijodida inson konseptining qo'llanilishi va o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Shoир she'rlarida qo'llangan metafora va o'xshatishlar tahlil qilingan. Shavkat Rahmon she'rlari lingvopoetikasi o'ziga xos jihatlari yoritilgan.*

**Аннотация:** В данной статье анализируются применение и особенности концепции человека в творчестве Шавката Рахмона. Анализируются метафоры и аналогии, используемые в стихотворениях поэта. Описаны особенности лингвопоэтики стихов Шавката Рахмона.

**Annotation:** This article analyzes the application and specifics of the human concept in the work of Shavkat Rahmon. The metaphors and analogies used in the poet's poems are analyzed. The peculiarities of the linguopoetics of Shavkat Rahmon's poems are described.

**Kalit so'zlar:** Shavkat Rahmon she'rlari, konsept, obraz, inson, metafora, o'xshatish.

**Ключевые слова:** стихи Шавката Рахмона, концепт, образ, личность, метафора, аналогия.

**Keywords:** Shavkat Rahmon's poems, concept, image, person, metaphor, analogy.

### KIRISH

Mustaqillik yillarida milliy ongimizni anglash, xalq ma'naviyatini yuksaltirish, o'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirishga alohida e'tibor berildi. Xususan, "Davlat tilining hayotimizdag'i o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi". Natijada tilning xalq tarixi, madaniyati va ma'naviyatining o'ziga xos ifodasi, yuksak estetik qimmat hamda hadsiz ifoda imkoniyatlariga ega xazina ekanligi yanada oydinlashdi. Prizedentimiz Sh.Mirziyoyev muhtasham «Kongress-xoll» saroyida 21 oktyabr kuni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda ona tilimiz xususida o'z nutqida quydagi fikirlarni bayon etdi: "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, beba ho'ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga qulqoq tutsin". Prezident ona tilimizning davlat va jamiyat hayotidagi ta'siri va mavqeini yanada oshirish, «Davlat tili haqida»gi qonunni bugungi kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirish zarurligini ta'kidlab, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak, deya ta'kidladi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Davlat tilimizga bo'lgan hurmat va sadoqatni prizedentimiz har bir asarlarida alohida urg'u bilan e'tibor qaratib kelmoqdalar xususan, "O'zbek tilining

davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzolangani bunga yorqin misol bo‘la oladi.

O‘zbek tili mavqeyini yanada ko‘tarish, dunyo miqyosida keng tarqalishi va o‘rganilishiga imkoniyatlar yaratish maqsadida ko‘pgina ishlar amalga oshirilib kelinmoqda shu qatorda tilshunoslik sohasida ham juda ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilmoxda. O‘zbek tilshunoslida lingvokulturologiya masalalariga bag‘ishlangan ilk tadqiqotlar Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmanova kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Hozirgi vaqtida konsept mavzusiga doir ko‘plab ishlar amalga oshirilmoxda bulardan U. Yigitaliyev<sup>18</sup>, U.Karimov<sup>19</sup>, T.Yandasheva<sup>20</sup>, M.Rahmatova<sup>21</sup>, T. Mardihev<sup>22</sup> va yana ko‘plab maqolalarni va magistrlik ishlarini bir qancha dissertatsiyalarni misol keltirishimiz mumkin. Kontsept termini borasidagi fikrlar o‘zbek tilshunoslari N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan batafsil izohlangan bo‘lib, Prof. N.Mahmudov o‘z maqolalaridan birida konsept termini eng ko‘p definitsiyaga ega bo‘lgan termin ekanligini ta’kidlab, shunday yozadi: “Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e’tibor qaratilmoqda, internetmateriallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliliklarda bu yo‘nalish nihoyatda keng tarqalganini ko‘rish mumkin, bu boradagiishlarni sanab, sanog‘iga etish ham mushkul. Hatto so‘nggi yillardayoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlangan”<sup>23</sup> O‘K. Yusupovlar nuqtai nazarida “konsept- bu ongimizdagи bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobi, salbiy, neytral munosabatlar ya’ni baholashlar”<sup>24</sup>. Shundan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologik kontsept etnomadaniy xususiyatga ega bo‘lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga ega informatsiyani uzatadigan madaniyatning assosiy birligidir. Kontsept madaniy universaliyalarni ifodalaydi va u tafakkurda mavjud bo‘ladi, o‘zida kognitiv-ratsional hamda emotsiyonal-psixik mazmunni biriktiradi. Lingvokulturologik kontsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o‘taydi va kontsept milliy xarakterning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi madaniy omil sanaladi. Konsept tilning ijtimoiy-madaniy sathiga tegishli kognitiv, shu bilan birga, lingvokulturologik birlik bo‘lib uning lingvistik ifodasini o‘rganishda badiiy matnlarning o‘rnini beqiyos. Durdonha Xudayberganovaning “Matnning antroposentrik

<sup>18</sup> Yigitaliyev U O‘zbek tilida “odam” va “jins” konseptlari bilan bog‘liq assotsiativ-verbal birliklar. PhD diss. Toshkent-2020. B

<sup>19</sup> Karimov U.N. Kontsept tushunchasi va uning badiiy adabiyotdagi mohiyati // O‘zMU xabarları, 2017. - №1/5. – B.416-417

<sup>20</sup> Yandashova T. O‘zbek va ingliz tillarida “go‘zallik” konseptining ifodalanishi va lingvopoetikasi. PhD diss.Toshkent-2021. -B.21

<sup>21</sup> Rahmatova M.M. Ingliz, o‘zbek va tojik milliy madaniyatida “go‘zallik” kontseptining lisoniy xususiyatlari, fil. fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss.avtoref. - Buxoro: 2019. - 51 b

<sup>22</sup> Мардиев Т. К. “бахт” концептинг лингвомаданий ва семантик талқини

<http://samxorfil.uz/images/source/pdf/2016/4/Mardihev.pdf>

<sup>23</sup> Mahmudov N. Tilning mukammal tadriski йўлларини izlab... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 9

<sup>24</sup> Юсупов Ў.Қ Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре маамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б.49.

tadqiqi”<sup>25</sup> monografiyasida keltirib o‘tilgan kognitiv metaforalar tushunchasi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishish jarayonida badiiy matn, uning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan metaforalar, ularga kognitiv semantik yondashuv to‘g‘risida ham qimmatli ma’lumotlar olishimiz mumkin. Tabiiy bir savol tug‘iladi: badiiy matn, metafora yoki kognitiv metafora tushunchalarining konseptga qanday aloqasi bor? Rus olimi N.S. Valgina esa metaforalar bir-biriga o‘tib boruvchi uch xil ma’nolar yig‘indisidan iborat, deb hisoblaydi: 1) to‘g‘ri ma’no - faktual axborotni ifodalaydigan ma’no; 2) ko‘chma ma’no - konseptual axborotni ifodalaydigan ma’no; 3) qayta anglangan ma’no (ramz) - ichki axborotni ifodalaydigan ma’no; tag ma’no<sup>26</sup> Berilgan tasnidan bilishimiz mumkinki, uch xil ma’no birlashmasidan bizga tanish bo‘lgan metafora yuzaga keladi. Uning bir qismi bo‘lgan ko‘chma ma’no esa aynan konsept bilan aloqador. Ya’ni biz metafora deb hisoblashimiz mumkin bo‘lgan tushunchaning o‘z va ko‘chma ma’nolari mavjud. Uchinchisi – qayta anglangan ma’no pragmatik jihatdan e’tiborga olinadigan qism bo‘lsa, ko‘chma ma’noni konseptual jihatdan ko‘rishimiz mumkin bo‘lar ekan. Hozirgi vaqtida kognitiv metaforalar nazariyasi ko‘plab sohalarga tadbiq etilgan bo‘lib, bilish, tushunchani kategoriyalashtirish, konseptuallashtirish, baholash va olamni tushuntirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi.<sup>27</sup>

Taniqli o‘zbek tilshunosi M.Mirtojiyev “O‘zbek tili semasiologiyasi” nomli monografiyasida metafora xosila ma’no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U tilshunoslikda qayd etilishicha hosila ma’no yuzaga kelishing hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari o’zaro o‘xhash kelishiga asoslangan ko‘rinishidir, bu izoh deyarli tilshunoslardan tan olingan<sup>28</sup> deya ta’rif bergan.

Metaforalarning matn yaratilishidagi o‘rnini tadqiq etishda, avvalo metaforik ma’noli so‘z yoki jumlaning mikro matn referensiyasiga munosabatini o‘rganish lozimligini D. Xudoyberganova o‘z ishida ta’kidlab o‘tadi va metaforik ma’noli birlik matn tarkibida asosan quyidagi holatlarda voqe bo‘ladi deya uch holatni ko‘rsatib o‘tadi:

- 1) tushuncha ifodasi sifatida;
- 2) vaziyat ifodasi sifatida;
- 3) vaziyatlar yig‘indisi ifodasi sifatida;<sup>29</sup>

Metafora tushunchani ifodasi sifatida kelganda matn tarkibida so‘z yoki so‘z birikmasi sifatida namoyon bo‘lib, matnda qo’llangan biror jumla tarkibidagi predmet belgi yoki harakat-holatning boshqa bir predmet belgi yoki harakat-holat bilan qiyosiy munosabatini ifodalaydi.

### MANZARA

Oq sukunat porlar saharda  
kun nurida yonib yaraqlab,  
chopib kirar sovuq shaharga  
yalangoyoq yashil daraxtlar.  
Bir zumdayoq devor.tar oshib,  
Ko‘chalarga tarqab ketdilar.

<sup>25</sup> D. Xudoyberganova. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent. 2013.

<sup>26</sup> Durdona, Xudayberganova (2012), Matnning antroposentrik tadqiqi, Toshkent: “Fan” nashriyoti.B-48

<sup>27</sup> Durdona, Xudayberganova (2012), Matnning antroposentrik tadqiqi, Toshkent: “Fan” nashriyoti B-49

<sup>28</sup> M.Mirtojiyev. O‘zbek tili semasiologiyasi.-Toshkent. 2010.B-94

<sup>29</sup> Durdona, Xudayberganova (2012), Matnning antroposentrik tadqiqi, Toshkent: “Fan” nashriyoti.B-102

Darchalarga yuzlarin bosib,  
bolalarday qarar kattalar.<sup>30</sup>

Shoir Shavkat Rahmonning ushbu “Manzara” she’rida so’z qo’llash san’ati o’ta yuqori ekanligi yaqqol ko’rinib turibdi. “Oq sukunat”, “yalangoyoq yashil daraxtlar”, “sovuv shahar” shoir ushbu leksemalar orqali she’rda metafora, “bolalarday qarar kattalar” kabi o’xshatishlar keltirgанини ko’rish mumkin.

#### XO’RSINIQ

Tog’ xo’rsinib yubordi og’ir-  
vodiylarga yugurdi shamol,  
yuzlarini yashirdi hilol.

Tog’ xo’rsinib yubordi og’ir,  
teran xobdan uyg’ondi yurak,  
tog’lar kabi xo’rsinmoq kerak.<sup>31</sup>

Ushbu she’rda shoir bir nechta o’rinlarda metafora qo’llaganini ko’rish mumkin. Masalan, “tog’ xo’rsinib yubordi”, “yugurdi shamol”, “yuzlarini yashirdi hilol”, “uyg’ondi yurak” kabi leksemalar orqali metaforalar qo’llangan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak o’zbek tili so’z boyligi va o’zing ifoda mazmun jihatni bilan hech bir tildan qolishmaydi. Shavkat Rahmon she’rlarining lingvistik jihatdan tahlil qilish, uni o’quvchi ongiga to’la to’kis yetkazish, shu bilan bir qatorda tilimizning ifodalilik va ko’chimlarga boy ekanligini yana bir bor ochib berishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yigitaliyev U O’zbek tilida “odam” va “jins” konseptlari bilan bog’liq assotsiativ-verbal birliklar. PhD diss. Toshkent-2020. B
2. Karimov U.N. Kontsept tushunchasi va uning badiiy adabiyotdagi mohiyati // O’zMU xabarlari, 2017. - №1/5. - B.416-417
3. Yandashova T. O’zbek va ingliz tillarida “go’zallik” konseptining ifodalanishi va lingvopoetikasi. PhD diss.Toshkent-2021. -B.21
4. Rahmatova M.M. Ingliz, o’zbek va tojik milliy madaniyatida “go’zallik” kontseptining lisoniy xususiyatlari, fil. fanlari bo’yicha falsafa doktori diss.avtoref. - Buxoro: 2019. - 51 b
5. Мардиев Т. К. “бахт” концептининг лингвомаданий ва семантик талқини <http://samxorfil.uz/images/source/pdf/2016/4/Mardihev.pdf>
6. Maxmudov N. Tilning muhammal tadkiqi yўllarini izlab... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 9
7. Юсупов Ў.Қ Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре маамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. –Б.49.
8. D. Xudoyberanova. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent. 2013.

<sup>30</sup> SH. Rahmon. Saylanma. T.,1997. B-4

<sup>31</sup> SH. Rahmon. Saylanma. T.,1997. B-4

9. Durdona, Xudayberganova (2012), Matnning antroposentrik tadqiqi, Toshkent: “Fan” nashriyoti.B-102
10. SH. Rahmon. Saylanma. T.,1997.
11. SH. Rahmon. Yurak qirralari. T.,1981.